




2020- yil yanvar-dekabr

2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi**Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik**

- 2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi **69,9 %** ni tashkil etdi.
- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **13,9** birlikni tashkil qildi.
- 2020- yilning yanvar-dekabrida **5742** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,4** foizga kam

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**Savdo**
34,0 %**Sanoat**
15,4 %**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi**
29,3 %**Qurilish**
6,1 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 1951 ta, sanoatda 886 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1681 ta, qurilishda 350 ta, yashash va ovqatlanishda 283 ta, tashish va saqlashda 115 ta tashkil etilgan.

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'chov birligi	2019- y.	2020- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	20304	25297	4993
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	5154	5742	588
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	69,5	69,9	0,4
Sanoat	%	22,5	34,7	12,2
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	99,6	98,7	-0,9
Investitsiya	%	30,5	18,0	-12,5
Qurilish	%	83,1	86,9	3,8
Chakana savdo	%	96,5	93,5	-3,0
Xizmatlar	%	71,2	70,1	-1,1
Yuk tashish	%	84,1	88,8	4,7
Yuk aylanmasi	%	83,7	90,1	6,4
Yo'lovchi tashish	%	93,4	97,1	3,7
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,6	97,6	2,0
Eksport	%	39,7	56,3	16,6
Import	%	69,0	52,5	-16,5



2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da

YaHM
69,9%

Savdo
93,5%

Sanoat
34,7%

Qurilish
86,9%

Investitsiya
18,0%

Export
56,3%

Xizmatlar
70,1%


Import
52,5%

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019 – yil yanvar – dekabr	2020 – yil yanvar – dekabr	(+;-)
Qashqadaryo viloyati	5154	5742	588
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	983	1045	62
Shahrisabz sh.	324	234	-90
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	241	295	54
Dehqonobod	211	241	30
Qamashi	334	358	24
Qarshi	421	353	-68
Koson	313	476	163
Kitob	330	405	75
Mirishkor	232	247	15
Muborak	153	170	17
Nishon	215	328	113
Kasbi	338	332	-6
Chiroqchi	418	509	91
Shahrisabz	317	378	61
Yakkabog'	324	371	47



**2020- yil yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar
bo'yicha ulushi, % da**




2020- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Qarshi shahri – 18,2 %, Chiroqchi tumani – 8,9 %, Koson tumani – 8,2 %, Kitob tumani – 7,1 %, Shahrisabz tumani – 6,6 %, Yakkabog' tumani – 6,5 %, Qamashi tumani - 6,2 %, Qarshi tumani – 6,1 % hissalariga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- y. yanvar-dekabr	2020- y. yanvar-dekabr	farq. (+;-)
Jami	5154	5742	588
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	928	1681	753
Sanoat	1151	886	-265
Qurilish	589	350	-239
Savdo	1607	1951	344
Tashish va saqlash	146	115	-31
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	329	283	-46
Axborot va aloqa	52	77	25
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	110	99	-11
Boshqa faoliyat turlari	242	300	58

Ma'lumot uchun: 2020– yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi (+;-)
Qarshi sh.	983	1045	62
Chiroqchi tumani	418	509	91
Koson tumani	313	476	163
Kitob tumani	330	405	75
Shahrisabz tumani	317	378	61
Yakkabog' tumani	324	371	47
Qamashi tumani	334	358	24
Qarshi sh.	983	1045	62
Chiroqchi tumani	418	509	91
Koson tumani	313	476	163

2020- yilning yanvar – dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi viloyat bo'yicha Qarshi shahrida – 1045 tani tashkil etdi.



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



● 2019- y. ● 2020- y.




2020- yil yanvar - dekabr

oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga nisbatan, 13,9 birlikni tashkil etdi.



Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko'ra*




2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Mirishkor tumanida 20,8 birlik, Kitob tumanida 18,8 birlik, Qarshi shahrida 18,7 birlik, Muborak tumanida 17,1 birlikni tashkil etgan. Kasbi tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 9,4 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




**2020– yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha
faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik
subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)***



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo’shgan holda)



2020- yilning yanvar-dekabrida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *



2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Mirishkor tumanida 20,8 birlik, Kitob tumanida 18,8 birlik, Qarshi shahrida 18,7 birlik, Muborak tumanida 17,1 birlik, Nishon tumanida 16,2 birlik, Koson tumanida 16,1 birlik Shahrisabz tumanida esa 16,0 birlikni tashkil etdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)

Eng yuqori ko'rsatkich

- Mirishkor tumani
- 20,8 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich

- Nishon tumani
- 16,2 birlik.

Eng past ko'rsatkich

- Kasbi tumani
- 9,4 birlik.



Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar-dekabr holatiga ko'ra, % da

2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 69,9 % ni tashkil qildi. (2019- yilning yanvar-dekabrida 69,5%).

YaHMda kichik beznis ulishi o'tgan yilga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.

64,3%

2018- y.

69,5%



2019- y.

69,9%

2020- y.



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirdorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Qashqadaryo viloyati	34,7	86,9	70,1	15,6
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	46,8	79,9	54,8	10,3
Shahrisabz sh.	83,2	63,9	67,9	53,7
<i>tumanlar</i>				
G'uzor	5,0	68,5	76,8	2,2
Dehqonobod	16,7	100,0	83,8	10,9
Qamashi	59,6	99,7	85,8	28,8
Qarshi	48,7	100,0	86,8	32,4
Koson	52,4	82,0	88,1	30,0
Kitob	96,5	100,0	87,6	29,4
Mirishkor	76,9	100,0	77,7	42,4
Muborak	29,9	77,8	56,4	5,9
Nishon	4,5	99,9	84,8	0,3
Kasbi	34,8	94,5	84,5	7,6
Chiroqchi	74,0	100,0	88,7	11,8
Shahrisabz	77,8	100,0	88,8	33,1
Yakkabog'	80,0	100,0	87,9	45,1

Hududlar bo'yicha kichik tadbirdorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Kitob (96,5 %),
Shahrisabz sh. (83,2 %),
Yakkabog' (80,0 %),
Shahrisabz (77,8 %)
va Chiroqchi (74,0 %)
tumanlarida.


Qurilishda-

Dehqonobod (100,0 %),
Qarshi (100,0 %),
Kitob (100,0 %),
Mirishkor (100,0 %),
Chiroqchi (100,0 %)
Shahrisabz (100,0 %)
va Yakkabog' (100,0 %), tumanlarida.


Xizmatlarda-

Shahrisabz sh. (53,7 %),
Yakkabog' (45,1 %),
Mirishkor (42,4 %),
Shahrisabz (33,1 %)
Qarshi (32,4 %) va
Qamashi (28,8 %)
tumanlarida.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 110,6 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 56,3 % ini tashkil etdi.




Kichik tadbirdorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da




2020- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirdorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Mirishkor tumanida – 100,0 %, Chiroqli tumanida – 100,0 %, Yakkabog' tumanida – 100,0 %, Shahrisabz tumanida – 97,3 %, Shahrisabz shaharida – 95,2%, ni, eng past ko'rsatkich G'uzor tumanida – 11,3 % va Qarshi tumanida – 13,1 % ni tashkil etdi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot(ishlar va xizmatlar) importining hajmi 182,7 million AQSh dollarini yoki umumiy importning 52,5 % ini tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2020- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Mirishkor tumanida – 100,0 %, Chiroqchi tumanida – 100,0 %, Shahrisabz tumanida – 100,0 %, Yakkabog' tumanida – 99,6 %, Muborak tumanida – 95,2 %, ni, eng past ko'rsatkich Kasbi tumanida – 11,3 % ni tashkil etdi.




2020 - yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 5058,1 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

2020- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (1375,5 mlrd. so‘m), Yakkabog’ (496,9 mlrd. so‘m), Koson (394,9 mlrd. so‘m), va Kitob (373,0 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Dehqonobod tumanida (96,8 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 34,7 foizni tashkil etdi.

2020- yil yanvar-dekabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorliknining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Kitob tumani (96,5 %), Shahrisabz shahri (83,2 %), Yakkabog' tumani (80,0 %), Shahrisabz tumani (77,8 %), Mirishkor tumani (76,9 %) va Chiroqchi tumani (74,0%) ni tashkil etdi. Nishon tumani (4,5%), G'uzor tumani (5,0%) ni kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 11 643,5 mlrd. soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 93,5% ni tashkil etdi. Oʼsish surʼati 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 1,2 foizga kamayayishi kuzatildi.




2020- yilning yanvar- dekabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirdorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʼsish surʼati




Hududlar kesimida kichik tadbirdorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qarshi shahri (2474,8 mlrd. soʻm), Koson (1139,9 mlrd. soʻm), Chiroqchi (1127,9 mlrd. soʻm) va Qamashi (1065,6 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʼgʼri keladi.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 4281 mlrd soʻmni yoki qurilish ishlari umumiyligi hajmining 86,9 foizini tashkil etdi. Oʼsish surʼati 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 102,3 foizni tashkil qildi.




2020- yilning yanvar- sentabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes) da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʼsish surʼati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qarshi shahri (1006,0 mlrd. soʻm), Koson (449,4 mlrd. soʻm), Qarshi (423,0 mlrd. soʻm), Chiroqchi (335,4 mlrd. soʻm) hamda Kitob (317,6 mlrd soʻm) tumanlarda qayd etildi.


2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 7081,9 mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 70,1 % ini tashkil qildi 2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 102 % pasayish kuzatildi.



2020- yilning yanvar- dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o‘sish sur’ati





Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Qarshi shahri (2465,6 mlrd. so‘m), Koson (519,5 mlrd. so‘m), Kitob (459,1 mlrd.so‘m) va Chiroqchi (439,2 mlrd.so‘m), tumanlari hissasiga to‘g’ri keladi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishining umumi hajmida kichik biznesning ulushi 88,8 foizni tashkil etdi. 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 4,7 foizni tashkil qildi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumi hajmida kichik biznesning ulushi 90,1 foizni tashkil etgan bo'lib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 6,4 foizni tashkil qildi.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumi hajmida kichik biznesning ulushi 97,1 foizni tashkil etib, bu esa 2019-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 3,7 foizga pasayishiga olib keldi.


2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumi hajmida kichik biznesning ulushi 97,6 foizni tashkil etib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan




o'sish sur'ati 2,0 foizni tashkil qildi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **990** ta respondentlar ishtirok etdi.



2020- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 9,1 % (90 ta), sanoatda – 14,1 % (140 ta), qurilishda – 16,0 % (158 ta), savdoda – 35,2 % (349 ta), xizmatlar sohasida – 25,6 % (253 ta) ni tashkil etdi.


* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan soʻf tushumi, ega boʻlgan kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha



2020- yil IV chorak boʻyicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan soʻf tushumi boʻlgan, kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar boʻyicha taqsimlanishi, birlikda



2020- yil IV chorak boʻyicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan soʻf tushumi boʻlgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar boʻyicha taqsimlanishi, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yilning IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning ulushida barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, qurilish sohasida, savdo sohasida, xizmatlar sohasida iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'payishi kuzatildi sanoat sohasida 0,8 punktga ulushining pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1,6 punktga, sanoat sohasida 4,3 punktga, qurilishda 16,0 punktga, savdo sohasida 6,1 punktga, xizmatlar sohasida 6,8 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019-2020- yillar IV choragida iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

**Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi Sanoat Qurilish Savdo Xizmatlar**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan barcha korxonalar ulushi ko'payishi ko'zatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni o'zgarishsizga ishongan barcha korxonalar ulushi pasayishi ko'zatildi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi savdoda 1,1 punktga va ximatlar sohasida 0,3 punktga oshdi.


Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019-2020- yillar IV choragida iqtisodiy vaziyatining yaqin uch oy uchun baholanishi,% da




2020- yilning IV choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 84 ta respondentlar qatnashgan. Shundan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 19 ta (22,6 %), sanoat korxonalari – 15 ta (ishtirok etgan respondentlar umumiy sonining 17,9 % i), qurilish – 6 ta (7,1%), savdo – 32 ta (38,1 %) va xizmatlarda – 12 ta (14,3 %) subyekt ishtirok etdi.



2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda





2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020- yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 1,3 punktga ko'paygan bo'lsa, sanoat sohasida 5,0 punktga qurilishda 33,4 punktga savdo sohasida 15,9 punktga faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 8,8 punktga ham sanoat sohasida 2,5 punktga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 7,5 punktga, sanoat sohasida 7,5 punktga, qurilishda 16,7 punktga, va savdo sohasida 11,4 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

2019-2020- yillarning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo


Xizmatlar



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatuvi natijalariga ko'ra, 2020- yilning IV choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyati yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi savdoda 3,4 punktga kamaygan bo'lsa, qolgan barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'paygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasi o'zgarishsiz qolgan bo'lsa, qolgan barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi savdoda korxonalarida 9,4 punktga, xizmatlar sohasida 8,3 punktga, oshdi.



2019-2020- yilning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da


Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar



Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi
Nashr uchun mas'ul: E.Begmurodov
Tel: (75) 220-03-94